


Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

2017 yilning yanvar-sentabrda 1256 ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,5 % tashkil qildi.


Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (29,8 %), sanoat tarmog'ida (19,6 %), qurilish tarmog'ida (12,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (9,4 %), yashash va ovqatlanishda (6,8%), tashish va saqlashda (4,8 %) tashkil etilgan.

2017 yil yanvar- sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2017 yilning yanvar-sentyabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 68,5 % ni tashkil qildi (2016 yilning yanvar- sentyabrda 68,4%).

**Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-sentyabr holatiga, %**



**2017 yil yanvar- sentabrda kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi (% da)**

| | <i>Sanoat</i> | <i>Qurilish</i> | <i>Xizmatlar</i> |
|------------------------|---------------|-----------------|------------------|
| Xorazm viloyati | 42,5 | 87,8 | 67,0 |
| Urganch sh. | 52,4 | 82,4 | 37,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Bog'ot | 77,7 | 91,2 | 95,2 |
| Gurlan | 52,2 | 93,8 | 96,4 |
| Qo'shko'pir | 60,8 | 85,8 | 94,3 |
| Urganch | 85,8 | 79,7 | 83,3 |
| Xazorasp | 11,4 | 99,7 | 96,5 |
| Xonqa | 39,7 | 74,6 | 98,3 |
| Xiva | 100,0 | 92,7 | 98,7 |
| Shovot | 60,1 | 100,0 | 95,3 |
| Yangiariq | 47,8 | 100,0 | 98,6 |
| Yangibozor | 46,2 | 100,0 | 96,3 |

Hududlar bo'yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Xiva (100,0 %), Urganch (85,8 %) va Bog'ot (77,7 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda Xazorasp (99,7), Shovot (100,0 %), Yangiariq (100,0 %) va Yangibozar (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Xazorasp (96,5 %), Xanqa (98,3 %), Xiva (98,7 %) va Yangiariq (98,6 %) tumanlari tashkil etadi.

2017 yilning yanvar–sentyabrda kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1136,2 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 42,5 %) yoki 2016 yilning yanvar–sentyabrga nisbatan o`shish sur`ati 100,5 %ni tashkil qildi;

– 635,1 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 52,9 %) o`zlashtirildi va 2016 yilning yanvar–sentyabrga nisbatan o`shish sur`ati 94,7 %ni tashkil qildi;

– 877,6 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 87,8 %) bajarildi va 2016 yilning yanvar–sentyabrga nisbatan o`shish sur`ati 98,6 % ni tashkil qildi;

– 1436,8 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar hajmining 67,0 %), 2016 yilning yanvar–sentyabrga nisbatan o`shish sur`ati 99,1 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 85,2 % yoki 2462,2 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 103,4 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 40,1 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 51,6 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2016 yilga nisbatan 25,5 mln. AQSh dollariga yoki 165,6 % ga kop;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 5,7 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,5 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 4,8 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 93,8 %) ko`payishi ta`minlandi;

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2017 yil yanvar- sentabrda hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (403,2 mlrd.so'm), Bo'got (142,2 mlrd.so'm) va Xazarasp (101,7 mlrd.so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Yangibozor (28,7 mlrd.so'm) va Yangiariq (39,0 mlrd.so'm) ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2017 yil yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (901,2 mlrd.so'm), Xazorasp (233,9 mlrd.so'm), Xiva (219,3 mlrd.so'm), Urganch (209,3 mlrd.so'm) va Xonqa (160,0 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2017 yil yanvar- sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Urganch shahri (397,3 mlrd.so'm), Xazorasp (138,6 mlrd.so'm), Xiva (123,5 mlrd.so'm), Urganch (121,2 mlrd.so'm) va Gurlan (108,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2017 yil III - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirmalar va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 38 respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 25,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 50,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 50,0 % va 50,0 %, xizmatlar sohasida – 10,0 % va 80,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 25,0 % va 75,0 %, sanoatda – 10,0 % va 80,0 %ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 10,0 %, qurilishda – 25,0 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0,0 %, xizmatlarda – 10,0 % va savdoda – 0,0 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2017 yil III-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 90,0 % sanoat korxonalari, 100,0 % – savdo, 70,0 % – xizmatlar, 100,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 100,0 % – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: B.Tillaev
Telefon: (0362) 224-65-18